



## Merosga kim munosib?

(Rivoyat)

Qadim zamonlarda mo'ysafid bo'lib qolgan badavlat otalardan biri voyaga yetgan besh o'g'lini yoniga o'tqizib, o'g'rilik, poraxo'rlik, kishi haqiga xiyonat, tuhmat qilish gunoh ekanini tushuntirib, bunga amal qilmaganlar jazoga tortilishi va merosdan mahrum qilinishini aytibdi.

Kunlar o'tib, farzandlarining halolligini sinab ko'rish niyatida o'g'illarini shahardan tashqariga sayilga olib chiqib, har yer-har yerga oltin solingan hamyonlarni tashlab qo'yibdi. Ayrimlari buni ko'rmagan bo'lsa, ko'rganlari, otam buni sinash maqsadida qilgan bo'lsa, ko'rib qolib merosdan mahrum etishi mumkin, deb olishga jur'at etmabdi.

Ammo kenja o'g'li hamyonni ko'rishi bilanoq qo'liga olibdi-yu, atrofga olazarak ko'z yugurtiribdi. Hech kim yo'qligini sezgach, darhol ko'zdan g'oyib bo'libdi. Buni kuzatayotgan akalaridan biri o'z pokligini bildirish niyatida darhol otasiga bo'lgan voqeani ma'lum qilibdi. Bundan hayron bo'lgan ota sukutga tushibdi-yu, biror gap aytishga shoshilmabdi. Kechqurun o'g'illari jam bo'lib, voqeani surishtirayotganda, kenja o'g'il:

– Mening sizlardan ajralib, kech qolishimning boisi shuki, hamyon ichida oltin tangalar borligini ko'rishim bilanoq yo'qotgan odamning ahvoli, buni ne

mashaqqatlar bilan topib, ne niyatlarda yig'ganligi-yu, yo'qotgan chog'dagi nolalari xayolimga kelib, uni topish uchun odam izi tushgan tomonga yugurdim.

Egasi chiqmagach, ko'pchilik orasida bir faqirga xayr qildim, – degan javobni aytibdi. Buni eshitgan ota:

– Barakalla, ofarin, butun meros senga, – deganda, katta o'g'il:

– Ota, axir, bu insofdan emas-ku! Yerdagi hamyonni men ham ko'rgan edim, lekin birovning haqi menga harom deb olmagan edim! Meros menga bo'lmay, nega bunga bo'ladi? – debdi. Shunda ota:

– Sening olmasliging birovning haqidan qo'rqishing, rahm-shafqat, halollikdan emas, olganimni kimdir ko'rsa-yu, bundan otam xabar topsa, merosdan mahrum qiladi, degan hisdan tug'ilgan. Kimdandir qo'rqib, jinoyat qilmaslik bu poklikdan emas. Ukaning qilmishi esa qonuniy jazodan qo'rqqanligidan emas, ichki e'tiqoddan, insonlarga bo'lgan mehrdan, – deb javob bergan ekan...





1. Rivoyat nima haqida ekan?
2. Mo'ysafid o'z o'g'illariga qanday shart qo'yibdi?
3. U o'g'illarini qanday yo'l bilan sinadi?
4. Kenja o'g'il hamyonni topib olgach, qanday yo'l tutdi?
5. Sizingcha, otaning qilgan ishi to'g'rimi?  
Fikringizni izohlang.



**ko'zi olazarak** – ko'zi besaranjom, alang-jalang



Ota va o'g'il suhbatini rollarga bo'lib o'qing.  
Rivoyat qahramonlari haqida fikringizni ayting.  
Rivoyatdagi asosiy g'oyani 2 ta gap bilan bayon qiling.

Ertakdagi ijobiy va salbiy xislatlarni ajrating.  
Rivoyat mazmuniga mos reja tuzing.

Maqollarni rivoyat mazmuniga bog'lang.

1. *Dili pokning ishi pok.*
2. *Tekin topgan mol yomon,  
Oxiri qo'yimas omon.*
3. *Ota-ona duosi  
O'tga, suvga botirmas.*



**Rivoyatni o'qing va mazmunini  
sharhlab bering.**